

**DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ BITIMLARDA SHARTNOMA
MAJBURIYATINI BAJARMAGANLIK UCHUN FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIK****Abduxalilov Shahboz Zafar o'g'li***Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti Bosh yuristkonsulti
shoh0098james@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqola davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida buyurtmachi va bajaruvchi o'rtasida yuzaga keladigan muammoli holatlardan biri bo'lgan majburiyatlarni bajarmaslik natijasida yuzaga keladigan fuqarolik huquqiy javobgarlik va uning qo'llanish sabab va asoslariga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar: *shartnoma, majburiyat, bitim,, ijrochi, yetkazib beruvchi, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, Xo'jalik yurituvchi subyektlar.*

Аннотация: Данная статья посвящена гражданско-правовой ответственности, возникающей за неисполнение обязательств, которая является одной из проблемных ситуаций, возникающих между заказчиком и исполнителем при осуществлении государственных закупок, а также причинам и основаниям ее применения.

Ключевые слова: договор, обязательство, сделка, исполнитель, поставщик, гражданско-правовая ответственность, субъекты хозяйствования.

Abstract: *This article is devoted to civil legal liability arising from non-fulfillment of obligations, which is one of the problematic situations that arise between the customer and the executor during the implementation of public procurement, and the reasons and grounds for its application.*

Key words: *contract, obligation, transaction, executor, supplier, civil-legal responsibility, Business entities.*

Davlat xaridlari bilan bog'liq bitimlarda shartnoma majburiyatini bajarmaganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik

Davlat xaridlari natijasida turli xildagi bitimlarning ko'rnishlaridan foydalaniladi. Uning natijasida kelib chiqadigan majburiyatlar ikkinchi tomon uchun javobgarlik yuklaydi. Shunday shartnomalardan biri mulkni topshirishga oid bitim hisoblanadi. Mulkni topshirishga oid bitimlar deganda bitim shartida ma'lum bir mahsulot yetkazib berish nazarda tutilgan bo'ladi. Fuqarolik huquqida buni mahsulot yetkazib berish shartnomasi deyiladi. Mahsulot yetkazib berish shartnomasi yetkazib beruvchi va xaridor o'rtasidagi huquqiy shartnoma bo'lib, unda tovarlarni sotish va yetkazib berish shartlari va muddatlari ko'rsatilgan bo'ladi. Ushbu shartnomalar yetkazib berish zanjirida ishtirok etuvchi har ikki tomon uchun aniq umidlar, mas'uliyat va huquqlarni belgilash uchun zarurdir. Chunki, sarf bo'layotgan summaning mahsulot sifatiq mos bo'lishi toki mahsulot yetib kelmaguncha bir tomonning shubhasiga sabab boladi.

Odatdagi shartnomada yetkazib beruvchi uchun ham ma'lum tavakkalchiliklar mavjud bo'ladi. Xususan, mahsulot yetkazib berilganidan so'ng shartnoma bo'yicha

to'lovlarni olish. Shartnomaning hisob-kitoblar bilan bog'liq shartida istagancha muddatni kelishuvga asosan belgilash mumkin. Biroq, ushbu muddat ko'p hollarda mahsulot qabul qilib olinganidan so'ng darhol amalga oshirilishi belgilanadi.

Biroq, davlat xaridi natijasida tuzilgan shartnomalarda bunday holatlar deyarli kuzatilmaydi. Chunki, davlat buyurtmachisi tomonidan xarid amalga oshirilishidan oldin uning uchun budgetdan ajratilgan pul summasi bo'ladi. Ushbu pul mablag'ini turli qing'ir yo'llar bilan o'zlashtirish imkoniyati amalda kam.

Fuqarolik qonunchiligidagi mahsulot yetkazib berish shartnomasiga o'xshasada, Fuqarolik Kodeksida davlat xaridlarida mahsulot yetkazib berilishini tartibga soluvchi alohida normalar mavjud. Bu davlat ehtiyojlari uchun mahsulot yetkazib berish uchun davlat kontrakti. Ushbu kontrakt davlat ehtiyojlari uchun tovarlar yetkazib berish yuzasidan davlat kontrakti bo'yicha (bundan buyon matnda davlat kontrakti deb yuritiladi) mahsulot yetkazib beruvchi (ijrochi) davlat buyurtmachisiga yoki uning ko'rsatmasiga binoan mahsulot yetkazib berish shartnomasi asosida boshqa shaxsga shartlashilgan muddatda tovarlar yetkazib berishni, davlat buyurtmachisi esa, yetkazib berilgan tovarlar haqi belgilangan muddatda to'lanishini ta'minlashni o'z zimmasiga oladi¹.

Umuman olganda, mahsulot yetkazib berish bo'yicha puxta tuzilgan shartnoma har ikki tomon uchun ham o'z manfaatlarini himoya qilish, huquqlarini himoya qilish va o'zaro manfaatli ishbilarmonlik munosabatlarini rivojlantirish uchun juda muhimdir. U biznesni shaffof, tizimli va mas'uliyatli tarzda olib borish uchun huquqiy asosni ta'minlaydi va pirovardida yetkazib beruvchi va xaridorning o'sishi va muvaffaqiyatiga hissa qo'shami.

Davlat xaridlarida shartnomani bajarmaslik bilan bog'liq javobgarlik boshqa shartnomalar bilan deyarli bir xil. Davlat xaridlarining qonunchilikda belgilangan prinsiplari davlat xaridlari jarayonining barcha bosqichlarida xususan javobgarlik masalasida ham qo'llanilishi lozim. Davlat xaridlarida shartnoma bajarilmasligi yoki vaqtida bajarilmasligi asosi davlat xaridlari sohasidagi munosabatlardagi korruption holatlar bilan bog'liq. Ushbu munosabat ishtirokchilari – buyurtmachi, yetkazib beruvchi va tashkilotchilarning suiiste'molliklarga yo'l qo'yayotganligi, belgilangan sifatdan past yoki kelishilgan bahoga mos kelmaydigan tovarlar yetkazib berish, davlat xaridlari bo'yicha zimmasiga olingan majburiyatni o'z vaqtida bajarmaslik yoki umuman bajarmaslik holatlari hisoblanadi. Davlat xaridlari sohasida xaridlarni tashkil etish, o'tkazish, buyurtmalarni joylashtirish, tanlovlarda g'oliblarni aniqlash, buyurtmachi va yetkazib beruvchi o'rtasida shartnomalar tuzish hamda ularni bajarishda turli suiiste'mollik, qonun buzilish va huquqbazarlik holatlari uchraydi. Bunda ko'proq jarayonni tashkil etish hamda savdo uchun ishtirokchi tanlash bilan bog'liq jarayonlardan iborat bo'lib, jinoiy javobgarlik qismi g'olib aniqlangungacha bo'lgan jarayonda tugaydi. Keyingi bosqich bu fuqarolik-huquqiy javobgarlik bu davlat buyurtmachisining tanlovida g'olib bo'lgan hamda obyektiv va subyektiv sabablarga

¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 1996-yil 29-avgust. – T.: "Adolat", 2021-yil.

ko'ra shartnoma majburiyatlarini bajara olmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan fuqarolik-huquqiy javobgarlik.

Davlat xaridlari bilan bog'liq bitimlar bo'yicha shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik uchun fuqarolik javobgarligi odatda shartnomada ko'rsatilgan o'z majburiyatlarini bajarmagan tomonlar uchun huquqiy oqibatlarning paydo bo'lishidir. Eng muhim holatlarda, nizolarni hal qilishning boshqa usullari samarasiz bo'lsa, tomonlar zararni qoplash yoki shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun sudga murojaat qilishlari mumkin. Davlat xaridlarida shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikni 3 ta katta guruhga ajratgan holda tahlil qilamiz. Bular: shartnoma muddatini kechiktirgan holda bajarish, shartnomada belgilangan sifat va assortimentga mos kelmagan holda bajarish hamda shartnoma majburiyatini bajarishdan bosh tortishdir.

Ma'lumki, Davlat bilan yuridik shaxslar o'rtasida davlat xaridlari orqali tuziladigan shartnomalar o'zida xo'jalik shartnomalarining xususiyatlarini namoyish etadi. "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida yozilishicha, taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to'lash majburiyatini oladigan kelishuv xo'jalik shartnomasi deyiladi.²

Shartnoma muddatini kechiktirgan holda bajarish – bunda majburiyat belgilangan muddatda bajarilmaydi. Shartnomaning muhim elementlaridan biri uning bajarilish muddatidir. Bunda muddatni tomonlar o'zari kelishgan holda yoki sotib oluvchi tarafning talabiga ko'ra ham bajarish muddatiga rozilik bildirishi mumkin. Agar shartnoma bo'yicha majburiyat muddatida bajarilmasa, javobgarlikka sabab bo'ladi. Qarzdor majburiyatlarning bajarilishini kechiktirib yuborganida to'laydigan va o'tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga nisbatan foiz bilan hisoblanadigan neustoyka penya hisoblanadi. Neustoykaning miqdori qonunchilikdan yoki shartnomadan kelib chiqishi mumkin. Qonunchilikka ko'ra: "Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi"³. Bu qonuniy penya miqdori hisoblanadi. Ushbu foizlar shartnomada

² O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 29.08.1998 yildagi 670-1-son Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 9-son, 170-modda

³ O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 29.08.1998 yildagi 670-1-son Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 9-son, 170-modda

“qonun hujjatlariga muvofiq”, “O’zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligiga asosan” yoki shunga o’xshash boshqa jumlalar shartnomaga kiritilganda amalda bo’ladi. Agarda shartnomada neustoyka masalasiga to’xtalinmagan bo’lsa ham qonuniy neustoykadan foydalaniladi. Chunki, Neustoyka to’lash taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan yoki tutilmaganligidan qat’i nazar, kreditor qonunda belgilangan neustoyka (qonuniy neustoyka)ni to’lashni talab qilishga haqli⁴. Qonuniy neustoykadan tashqari shartnomaviy neustoyka ham mavjud. Bunda neustoykaning kunlik hamda umumiuy miqdori tomonlarning kelishuviga ko’ra belgilanadi. Bunda shartnomada neustoyka miqdorini kunlik 1% yoki unda ko’proq belgilanishi mumkin. Bunga qonunchilik hech qanday cheklov qo’ymaydi. Faqat qo’yiladigan shartlar bir tomon ahvolini yomonlashtiradigan holatga olib kelmasa bo’lgani. Biroq, bunday shartnomalar amaliyotda juda ham kam uchraydi. Chunki, shartnoma shartlarini belgilashda qonunchilik normalaridan chiqishga ko’pchilik uchun qulay hamda oson yo’l. Biroq, katta summa belgilanishi shartnoma bo'yicha bajaruvchiga yanada ko'proq mas'uliyat yuklaydi.

Adabiyotlarda fuqarolik-huquqiy javobgarlikni shartli 3ta bosqichga bo’lingan holatiga guvoh bo’lishimiz mumkin. Yuridik turdag'i har qanday javobgarlik chorasi, xususan fuqarolik-huquqiy javobgarlikni amalga oshirish ham asosiy uchta bosqichdan o’tadi. Bunda:

1. Huquqbazarlikning faktini aniqlab olish va uni kvalifikatsiya qilish (asoslari, javobgarlikning shartlari, xatti-harakatlarning qonunga zidligini istisno qilishi mumkin bo’lgan holatlar) bilan bog’liq;
2. Javobgarlik turi (jazo chorasining miqdori) aniqlanadi;
3. Yuridik javobgarlik ta’sir chorasini bevosita qo’llash bilan bog’liq jarayondan iborat.⁵

Shartnomada belgilangan sifat va assortimentga mos kelmagan holda bajarish. Bunda shartnomada belgilangan mahsulot hamda topshirilgan mahsulot o’rtasida tafovut mavjud bo’ladi. Ma'lumki, Majburiyatlar majburiyat shartlariga va qonunchilik talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo’lmaganida esa — ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo’yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak⁶.

Bunday jarayon odatda amaliyotda elektron do’kon orqali davlat xaridlarini amalga oshirganda kelib chiqadi. Sababi, elektron do’konda maxsus axborot portal mahsulotlar ichidan eng past narx taklif qilingan variantini tanlab oladi hamda shartnoma taklif qiladi. Bunda sifat asosiy o’ringa chiqmaydi. Ko’rsatgichlar belgilanganidek bo’lishi mumkin. Biroq, ishlab chiqaruvchi yuqori standardlarga ega bo’lmagan bo’lishi mumkin. Bunda shartnoma majburiyati sotuvchi tomonidan bajarilsada, davlat buyurtmachisi norozi bo’lishi holati kelib chiqadi. Ushbu nizoli holat shartnoma shartlarining bajarilmasligi emas balki, ishlab chiqilgan tizimning

⁴ O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 1996-yil 29-avgust. – T.: “Adolat”, 2021-yil

⁵ Кузнецова О. А. Применение мер гражданско-правовой ответственности // Вестник Пермского университета. Юридические науки. 2012. №4. УРЛ:

⁶ O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 1996-yil 29-avgust. – T.: “Adolat”, 2021-yil

noto'g'riliqidandir. Chunki, shartnoma ikki tomonning kelishuviga asoslanmaydi balki, eng kam narx bergan shaxsga maxsus tizim orqali taqdim etiladi. Bunda shartnoma taraflari shartnoma bajarilishigacha bo'lgan davrda ham bir-birlarini tanimasligi holati ham kelib chiqadi.

Shartnoma majburiyatini bajarishdan bosh tortish. Davlat xaridlarida shartnoma bajarishdan bosh tortishning 2 xil turi mavjud. Birinchisida davlat buyurtmachisi shartnoma tuzishdan bosh tortadi. Bunday bosh tortish shartnoma tuzilgungacha bo'lgan davrda amal qiladi. Agar maxsus portal orqali shartnoma tuzishdan bosh tortilsa, unda portalning o'zi jarima summasini belgilaydi hamda bajaruvchi yoki ijrochining hisobidan oladi. Bunda davlat buyurtmachisi tomonidan ijrochiga yetkazilgan zarar qoplab beriladi. Keyingi holatda shartnoma tuzilganidan so'ng ijrochining shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmasligi bilan bog'liq. Bunda ijrochidan qonun belgilangan tartibda neustoyka yoki zarar undirib olinadi. Agar majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka belgilangan bo'lsa, zararning neustoyka bilan qoplanmagan qismi to'lanadi.

Qonunda yoki shartnomada zararni emas, balki faqat neustoykani undirib olishga yo'l qo'yiladigan; zarar ham neustoykadan tashqari to'la hajmda undirib olinishi mumkin bo'lgan; kreditorning tanloviga ko'ra yoki neustoyka yoxud zarar undirib olinishi mumkin bo'lgan hollar belgilanishi mumkin⁷.

Bunda davlat buyurtmachisiga yetkazilgan zarar bu – davlat budgetiga yetkazilgan zarar hisoblanadi. Majburiyatni belgilanganidek bajarmaganlik uchun qo'llaniladigan fuqarolik-huquqiy ta'sir(javobgarlik) choralarini qo'llash har doim muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ushbu turdag'i ishlarni ko'rishda sudlar tomonidan fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortish asoslari va shartlarini to'liq tahlil qilishi, shuningdek, birgalikda cheklangan javobgarlik institutinidan foydalanishda, neustoyka miqdorini kamaytirishda tomonlar orasida tuzilgan bitimni, qonun hujjatlarini va ikkala tarafning moddiy ahvoli va manfaatlarini inobatga olishi zarur⁸. Haqiqatdan ham ushbu fikrga qo'shilisak bo'ladi. Sababi, neustoykagacha boradigan javobgarlik ko'p hollarda to'liq o'rganilmaydi. Katta summada tuzilgan davlat xaridi bilan bog'liq shartnomada 1 yoki 2 kunga mahsulot yoki xizmatning kechikishi katta summada penya to'lash bilan yakunlanadi. Bunda o'z-o'zidan xususiy sektor ijrochilarining davlat buyurtmachisi bilan ishslashga bo'lgan qiziqishi so'nib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 1996-yil 29-avgust. – T.: "Adolat", 2021-yil.
2. Кузнецова О. А. Применение мер гражданско-правовой ответственности // Вестник Пермского университета. Юридические науки. 2012.

⁷ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 1996-yil 29-avgust. – T.: "Adolat", 2021-yil

⁸ Imomniyozov D /MAJBURIYATNI BAJARMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI QO'LLASH MUAMMOLARI. Scientific Journal Impact Factor 2022: 4.556 http://sjifactor.com/passport.php?id=22322

№4. УРЛ: [хттп://сайберленинка.ру/артисле/н/применение-мер-гражданской-правовой ответственности \(дата обращени\)](http://сайберленинка.ру/артисле/н/применение-мер-гражданской-правовой ответственности (дата обращени))

3. Imomniyozov D /MAJBURIYATNI BAJARMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI QO'LLASH MUAMMOLARI. Scientific Journal Impact Factor 2022: 4.556 <http://sjifactor.com/passport.php?id=22322>

4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 29.08.1998 yildagi 670-I-son Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 9-son, 170-modda

5. Chinqulov Q.R., O'roqov U.Y. O'zbekistonda davlat xaridlari tizimining huquqiy asoslarini shakllanish va takomillashuv bosqichlari // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №4, 2017-yil.

6. Liu J., Shi B., Xue J., Wang Q. Improving the green public procurement performance of Chinese local governments: From the perspective of officials' knowledge // Journal of Purchasing and Supply Management. Volume 25, 2018.

7. 1.13. Rahimova G.X. o'zbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil etish asoslari // "Iqtisod va moliya" ilmiy-amaliy jurnali. №4, 2014-yil.

8. Annual Report. Public Procurement Service, Innovating Excellent in Procurement.2016